


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI




FALSAFA VA FAN METODOLOGIYASI


FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 – San‘at va gumanitar fanlar
Ta‘lim sohasi: 220 000 – Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)
Ta‘lim yo‘nalishi: 60220500 –Falsafa

Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti dekani:  Askarov M.M.

Sharq falsafasi va germenevtika kafedrası mudiri:  Sulaymonov J.B.

ARM boshlig'i

 Yuldasheva M.M.

Fan/modul kodi FFM1804	O'quv yili 2028-2029	Semestr 8	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Falsafa va fan metodologiyasi	48	72	120
2.	<p>I. Fanning mazmuni:</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda hozirgi zamon fanining dolzarb muammolari va metodologiyasi, fan rivojlanishining asosiy qonunlari va asosiy bosqichlariga oid nazarini bilimlarni o'rgatish va ularni amaliyotda tatbiq etish konikmasini shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarga fanning tarixiy taraqqiyoti va asosiy vazifalari, fan tarixiy rivojining asosiy bosqichlari, shuningdek O'rta asrlarda Yaqin va O'rta Sharq hamda Markaziy Osiyoda ilm-fani rivoji, hozirgi davrning eng mashhur metodologik tamoyillari va yondashuvlari yuzasidan nazariy bilim berish, ularni amaliyotda qo'llash amaliy ko'nikmalarini hamda ilmiy-falsafiy dunyoqarashni shakllantirish vazifalarini bajaradi.</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Leiden universiteti (ARWU 111) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p>https://studiegids.universiteitleiden.nl/en/studies/9708/philosophy-global-and-comparative-perspectives#tab-1</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. "Falsafa va fan metodologiyasi" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari</p> <p>Fanning predmeti, mazmuni va strukturasi. "Falsafa va fan metodologiyasi" fanida qo'llaniladigan asosiy kategoriyalar.</p> <p>"Falsafa va fan metodologiyasi"ning maqsad va vazifalari. Fanning "Bilish falsafasi va epistemologiya", "Sharq falsafasi va madaniyati tarixi", "G'arb</p>			

falsafasi tarixi” va boshqa mutaxassislik fanlari bilan o‘zaro bog‘liqligi. Uning ijtimoiy-gumanitar fanlari tizimida tutgan o‘rni. Fan va falsafaning o‘zaro mutanosibliigi.

Fanlarning tasnifi. Tabiiy, ijtimoiy-gumanitar va texnik fanlarning o‘zaro aloqadorligi Yangi ilmiy sohalar paydo bo‘lishining tarkibiy qismlari: predmet, metod, maqsadli bilish. Fan rivojida fundamental va amaliy tadqiqotlarning o‘rni.

2-mavzu. Fan falsafaning tadqiqot obyekti sifatida

“Fan” tushunchasining mohiyati. Fan ma’naviy faoliyat va ijtimoiy ongning o‘ziga xos turi. Fan bilim, faoliyat va ijtimoiy muassasa sifatida. Zamonaviy jamiyat hayotida ilmning o‘rni. Fanning ijtimoiy funksiyalari. Zamonaviy falsafada ssientizm va antissientizmning dilemmasi. Ssientizmning oqilona asoslari. Fan va ijtimoiy taraqqiyot. Fan bilish va inson mohiyatini ro‘yobga chiqarish usuli sifatida.

Fan falsafasining rivojida pozitivizmning roli.

3-4-mavzu. Fan tarixiy rivojining asosiy bosqichlari

Miloddan avvalgi I minginchi asrdan – milodiy XVI asrgacha – dastlabki fanning shakllanishi. Tajriba asosida shakllangan tafakkur faoliyati. Dastlabki fan va haqiqiy fan. Kosmos modelining yaratilishi. Antik davrning naturfalsafasida atomistika va elementarizm g‘oyalari.

O‘rta asrlarda ilmiy bilish taraqqiyoti. O‘rta asr G‘arb madaniyati. O‘rta asr sharq tafakkurining ustivor yo‘nalishlari. Jahon ilm-fani rivojida O‘rta asrlar Musulmon Sharqi fani rivojining o‘rni.

XVI-XVII asrlar – ilmiy inqiloblar davri. XVIII-XIX asrlarda – mumtoz fanning shakllanishi. XX asrdan – fan rivoji yangi davrining boshlanishi. XX asr oxirida postnoklassik fanning shakllanishi. Elektronikaning yaratilishi. Sinergetika – fanning metodologik tamoyili sifatida. Universal evolyusionizm g‘oyasi. Fan-texnika rivojida ilmiy inqiloblarning o‘rni.

5-mavzu. Ilmiy bilimning o‘ziga xos xususiyatlari va ilmiylik mezonlari

Fan dunyoni ma’naviy ozlashtirishning oqilona usuli. Tizimiylik, daliliylik, tanqidiylik va ob‘yektiv haqiqatga intilish ilmiy tafakkurning asosiy tamoyillari sifatida. Realizm, instrumentalizm va konvensiolizm, gipotetizm va fallibizm ilmiy bilimlar tabiati haqida.

Bilim shakllarining xilma-xilligi: kundalik amaliy bilimlar, shaxsiy bilim, parailmiy bilim, kvaziilmiy bilim, antiilmiy bilim, psevdofilm, deviant ilm, anormal ilm.

Metodologiya tarixida bilimlarning ilmiyligi mezonlari muammosi. Ilmiylikning deduktivistik va induktivistik modellari. Ilmiylikning verifikatsiyalash va falsifikatsiyalash modellari. Bilim ilmiyligining asosiy mezonlari.

6-mavzu. Ilmiy bilim strukturasi va funksiyalari

Ilmiy bilimning empirik, nazariy va metodologik darajalari. Empirik bilim darajasi, uning o'ziga xosligi va funksiyalari. Nazariy bilim darajasi, uning oziga xosligi va funksiyalari. Ilmiy bilimning turli pog'onalarida hissiy va aqliy bilishning o'zaro aloqadorligi. Ilmiy bilimning metodologik pog'onasida fan va falsafa o'zaro ta'sirining namoyon bo'lishi.

Ta'rif, tushuntirish, prognozlash - ilmiy bilimlarning asosiy vazifalari. Ilmiy tushuntirishning xarakteri. Tushunish va tushuntirish.

Bashorat va prognoz. Ijtimoiy fanlarda prognozlashning o'ziga xos xususiyatlari.

7-mavzu. Ilmiy bilimning asosiy shakllari va ularning o'zaro aloqadorligi

Ilmiy muammo tushunchasi. Uning gnoseologik tavsifi. Ilmiy muammolarnig tasnifi.

Ilmiy dalil tushunchasi. Dalil va hodisa. Daliliy mulohazalarning gnoseologik va mantiqiy tavsifi. Ilmiy tadqiqotda dalillarning o'rni.

Gipoteza nazariy tadqiqotning sintetik usuli va ilmiy bilimlarning asosiy shakli sifatida. Gipotezani shakllantirish jarayonida diskursiv va intuitiv jihatlarning nisbati. Eksperimental tekshirish va farazlarni asoslash.

Qonun tushunchasi. Fan qonunlarining tasnifi: dinamik va statik qonunlar. Ilmiy bilishda qonunlarining funksiyalari.

Ilmiy nazariya ilmiy bilimning tizimlashgan shakli sifatida. Ilmiy nazariya tushunchasi. Ilmiy nazariyaning strukturasi. Nazariyaning tasdiqlanishi muammosi. Nazariy bilimni ishlab chiqish va uni asoslash metodlari.

8-mavzu. Ilmiy bilish dinamikasi.

Ilmiy bilish dinamikasi. G'arb falsafasi va epistemolgyiyasida bilimning o'sishi muammosi. J.Piaje genetik epistemologiyaning vakili. K.Popperring ilmiy bilimlarning o'sib borishi modeli. T. Kunning ilm-fan rivojlanishining

paradigmatik kontsepsiyasi. S.Tulminning evolyusion epistemologiyasi. I.Lakatos ilmiy tadqiqot dasturi haqida. M.Polaning shaxsiy bilim nazariyasi. P. Feyerabendning metodologik anarxizmi. Ilmiy bilimlarning gumanitar ideali.

9-mavzu. Hozirgi davrning eng mashhur metodologik tamoyillari va yondashuvlari.

Metodologiyaning ko'pdarajaliligi. Tadqiqotning xususiyilmiy va umumilmiy metodlari. Muvofiqlik, to'ldiruvchanlik, verifikatsiya va falsifikatsiya, reduksiya va kontrreduksiya tamoyillari. Mantiq metodlari.

Falsafa tushunchalar apparatining o'ziga xosligi. Falsafa taraqqiyotining asosiy tendensiyalari. Falsafa fan sifatida. Fan qiyofasi.

Hozirgi zamon metodologiyasi. Falsafa va fan metodologiyasi. Falsafa va fan metodologiyasining mutanosibli. Falsafaning ilmiy bilishdagi funksiyalari. Metodologik yangiliklarning xarakteristikasi. Fan falsafasi va metodologiyasida ilmiy bilim tuzilishi va o'sishining oqilona rekonstruksiyalari. Mantiq ilmiy bilish metodologiyasi sifatida. Mantiq va matematikaning bilish imkoniyatlari.

10-mavzu. Postnomumtoz fanning epistemologik muammolari: fanda fanlararo va transdisiplinar tadqiqotlar

Fanda fanlararo tadqiqotlarning ahamiyati. Kross-distsiplinar tadqiqotlar.

Kross-distsiplinar tadqiqotlardagi murakkab muammolarni bir fan doirasida emas, balki bir nechta fanlarning yondashuvlari, usullari va konsepsiyalarini qo'shib hal qilinishi. Multidistsiplinar tadqiqotning bir nechta fanlar bir muammoni o'z nuqtai nazaridan o'rganishi, lekin ularning o'zaro chuqur integratsiyaga kirmasligi. Interdistsiplinar tadqiqotning fanlararo chuqur hamkorlik, metod va konsepsiyalar almashuvi orqali yangi ilmiy yechim yaratishi. Transdistsiplinar tadqiqotning faqat fanlar bilan cheklanmay, amaliyotchi mutaxassislar, siyosatchilar va jamiyat vakillari hamkorlikda murakkab muammolarni hal qilishi.

11-mavzu. Raqamli texnologiyalar va raqamli sivilizatsiya

Bilimning informativligi mummosi. Axborot, bilim, ma'lumot tushunchalarining tahlili. Ijtimoiy va ilmiy axborot. Ilmiy axborot – ijtimoiy axborotning bilish faoliyatida foydalaniladigan alohida turi.

Informatika va informatizatsiya. Axborot kompyuter texnologiyalari va

yangicha fikrlash hamda bilish faoliyatning shakllantirish. Axborot texnologiyasini o'zlashtirishning ilmiy tadqiqot faoliyatiga ijobiy ta'siri. Axborotlashgan jamiyat konsepsiyasi. Axborotlashgan jamiyatda mehnat, shuningdek olim mehnati mazmunining o'zgarishi. Axborot inqilobi. Nanotexnologiyalar. Biometrik identifikatsiya qilish texnologiyasi

Sun'iy intellekt tushunchasi. Sun'iy intellektning ijobiy va salbiy jihatlari. Sun'iy intellekt kirib borgan fan sohalari.

12-mavzu. XXI asr fanining dolzarb muammolari va fan etnosi

L.N.Gumelyov passionarlik va subpassionarlik haqida. Virtuallik va virtual voqelik. Virtual zarralar. Virtualistika. Klonlashtirish va yevgenika. XXI asr fani va falsafasidagi muhim muammolar. Koevolyusiya nazariyasi va amaliyoti.

Fan va axloq. Ilmiy tadqiqotlarning axloqiy jihatlari va olimning ilmiy kashfiyotlarga mas'uliyati. Ekologik kataklizmlar. Ekologiya va etika. Diniy etikada tabiatga munosabat. Ekologiya muammosining fanlararo xususiyati va uni yechish yo'llari.

III. AMALIY MASHG'ULOTLARI BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar "Falsafa va fan metodologiyasi" fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsifiya etiladi:

1. "Falsafa va fan metodologiyasi" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. Fan falsafaning tadqiqot obyekti sifatida.
3. Fan tarixiy rivojining asosiy bosqichlari.
4. Fan tarixiy rivojining asosiy bosqichlari.
5. Ilmiy bilimning oziga xos xususiyatlari va ilmiylik mezonlari.
6. Ilmiy bilim strukturasi va funksiyalari.
7. Ilmiy bilimning asosiy shakllari va ularning o'zaro aloqadorligi.
8. Ilmiy bilish dinamikasi.
9. Hozirgi davrning eng mashhur metodologik tamoyillari va yondashuvlari.

10. Postnomumtoz fanning epistemologik muammolari: fanda fanlararo va transdisiplinar tadqiqotlar.

11. Raqamli texnologiyalar va raqamli sivilizatsiya.

12. XXI asr fanining dolzarb muammolari va fan etnosi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar dars jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy mashg'ulotlarni keyslar va organayzerlar orqali bajarish natijasida yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarini chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha taqdimotlar va ko'rgazmali qurollar tayyorlash, foydalanish va boshqalar tavsiya etiladi.

IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- badiiy-ijodiy ishni bajarish;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;

"Falsafa va fan metodologiyasi" fanidan mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Fanning ijtimoiy funksiyalari.

2. Fan rivojlanishining asosiy qonunlari.
3. Falsafa tarixida fanlarning tasnifi masalasi.
4. Ilmiy bilim shakllari.
5. Qadimgi dunyo va oʻrta asrlarda ilmiy bilimlarning paydo boʻlishi.
6. Oʻrta asrlarda Yaqin va Oʻrta Sharq hamda Markaziy Osiyoda ilm-fani rivoji.
7. Xorazm “Maʼmun akademiyasi”ning tashkil etilishi va uning ilm-fan rivojidagi oʻrni.
8. Muso Xorazmiy va Ahmad Fargʻoniy ilmiy merosining jahon ilm-fani va zamonaviy sivilizatsiya rivojida tutgan oʻrni va ahamiyati.
9. Abu Nasr Forobiy va Ibn Sino ilmiy merosining jahon ilm-fani va zamonaviy sivilizatsiya rivojida tutgan oʻrni va ahamiyati.
10. Abu Rayhon Beruniy – tajribaviy metod asoschisi.
11. Mumtoz fanning paydo boʻlishi va rivojlanishi.
12. XIX asr oxiri va XX fan boshlarida fan taraqqiyoti.
13. Klassik va noklassik fanning farqi.
14. G. Rikkert ideografik va nomotetik fanlar haqida.
15. Sinergetika – fanning metodologik tamoyili sifatida.
16. Ilmiy bilish dinamikasi.
17. K. Poppning bilish modeli.
18. T. Kun ilmiy inqiloblar haqida.
19. S. Tulminning evolyusion epistemologiyasi.
20. Fan falsafasining rivojida pozitivizmning roli.
21. XXI asr fanining dolzarb muammolari.
22. Hozirgi davrning eng mashhur metodologik tamoyillari va yondashuvlari.
23. Ijtimoiy–gumanitar bilishning oʻziga xos xususiyatlari.
24. Mantiq ilmiy bilish metodologiyasi sifatida.
25. Olimning ilmiy kashfiyotlarga masʼuliyati.
26. Kognitiv jarayonda muammoli vaziyatning roli.
27. Sunʼiy intellektning qadriyaviy-axloqiy jihatlari.
28. Raqamli texnologiyalar va raqamli jamiyat.

Mustaqil oʻzlashtiriladigan mavzular boʻyicha talabalar tomonidan taqdimot tayyorlash tavsiya etiladi.

3.

V. Fan oʻqitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)
“Falsafa va fan metodologiyasi” fanini oʻzlashtirish natijasida talaba:

	<p>- fanlarning tasnifi; tabiiy, ijtimoiy-gumanitar va texnik fanlarning o'zaro aloqadorligining asosiy sabablari; fan taraqqiyotiga eksternalistik va internalistik yondashuvlar; fan taraqqiyotining modellari; kumulyativizm va antikumulyativizm; ilmiy taraqqiyot shakllari va ilmiy bilish dinamikasi haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i>;</p> <p>- hozirgi davr fanining muhim muammolarini; olimning ijtimoiy mas'uliyatining ahamiyatini; empirik va nazariy bilish usullarining o'zaro aloqadorligini; bilim haqiqatligining mezonlarini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>;</p> <p>- Sharq falsafasi, madaniyati va ilm-fanida o'z aksini topgan dunyoviylik va diniylikning o'zaro uyg'unligi asosida fanning insonparvarlashuvi hamda tabiatshunoslik, falsafa va diniy ta'limotlarning bilish tizimida aloqadorligining mohiyatini ochib berish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>.</p>
4.	<p style="text-align: center;">VI. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • amaliy mashg'ulotlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p style="text-align: center;">VII. KREDITLARNI OLISH UCHUN TALABLAR:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, mustaqil ta'lim bo'yicha hamda joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish va/yoki og'zaki imtihonni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">VIII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</p> <p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Иззетова Э.М., Пулатова Д.А. Философия и методология науки. Учебное пособие. – Т.: ТДШИ, 2013. 2. Ikramova I.R. Falsafa va fan metodologiyasi. O'quv qo'llanma. – T., 2024. 3. Shermuxamedova N. A. Falsafa va fan metodologiyasi. Darslik. – T.: Universitet, 2005.

4. Баранец Н.Г. Философия науки. Учебное пособие. – Ульяновск: Вектор. 2011. (Elektron nusxa).

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: O'zbekiston, 2024.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2023.
4. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. –Toshkent: O'zbekiston, 2022.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O'zbekiston, 2022. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faravon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016.
6. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi// <https://www.lex.uz>
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida// www.press-service.uz/uz/lists/view/688
8. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi (Besh tashabbus)//<http://www.uza.uz/oz/politics/prezident-yeshlar-manaviyatini-yuksaltirish-ularning-b-sh-va-19-03-2019>
9. Пулатова Д.А., Иззетова Э.М. Философия. –Т.: ТДШИ, 2013.
10. Po'latova D. Qodirov M. va boshq. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O'quv qo'llanma. – T.: TDSHI, 2015.
11. Po'latova D., Ruzmatova G. G'arb falsafasi tarixi. O'quv qo'llanma. –Т.: Fan va texnologiya, 2018.
12. Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya. Darslik. –Т.: O'FMJ, 2007.
13. Микешина Л.А. Философия науки. Учебное пособие. – М.: Прогресс-Традиция. 2005.
14. Обидина Ю.С. Философия и методология науки. – Йошкар-Ола, 2017. – 238с.

def

	<p>15. Черникова И.В. Междисциплинарные и трансдисциплинарные методологии и технологии современной науки. – Томск, 2018. – 86с.</p> <p style="text-align: center;">Scopusdan maqolalar</p> <p>16. William D'Alessandro. Deontology and safe artificial intelligence// Philosophical Studies (2024) Scopus. https://link.springer.com/article/10.1007/s11098-024-02174-y</p> <p>17. Alkemade, E., Deeg, N., Guillén Almiñana, C. et al. Global Epistemologies and Philosophies of Science: Global Dialogues and New Directions for Philosophy of Science. J Gen Philos Sci (2023).</p> <p>18. https://doi.org/10.1007/s10838-023-09660-7</p> <p>Akhan, A.K. Smoke and Fire. Sign Inference in Greek and in Indian Epistemology. J Indian Philos (2024). https://doi.org/10.1007/s10781-024-09572-w</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbalar</p> <p>19. www.lex.uz.</p> <p>20. www.gov.uz.</p> <p>21. www.library.zivonet.uz.</p> <p>22. www.faylasuf.uz.</p> <p>23. http://booksss.ru/философия//Slovar_Philosof.rar</p> <p>24. https://www.yandex.ru/search/Кузьменко_Г.Н.,_Отюцкий_Г.П._Философия_и_методология_науки._Учебное_пособие._-_М.:ЮРАЙТ._2016.</p>
7.	<p>Fanning o'quv dasturi "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedrasidan tomonidan ishlab chiqilgan va 2025 yil <u>25 06</u> dagi <u>20</u>-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 yil <u>28 06</u> dagi <u>11</u>-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ullar:</p> <p>Ikramova I.R. – TDSHU, "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedrasida dotsenti, PhD.</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>Ramatov J.S. – TTYMU "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasida mudiri, falsafa fanlari doktori, professor;</p> <p>Saydaliyeva N.Z. – TDSHU, "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedrasida dotsenti, f.f.n.</p>